

MUNDARIJA
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
TABIIY FANLAR VA GEOGRAFIYA FAKUL'TETI

GEOGRAFIYA VA EKOLOGIYA ASOSLARI KAFEDRASI

“DAK ga tavsiya etaman”
Tabiiy fanlar va geografiya fakulteti dekani
dots.A.Nazarov
“9” 2014 yil

«NAMANGAN VILOYATIDA EKOTURIZMNING
RIVOJLANTIRISH MASALALARI »

mavzuidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISH

Bajardi: «Geografiya» ta'lim yo'nalishi
bitiruvchi 4-kurs talabasi Rasulova K.H.

Rahbar: g.f.n., dotsent Nazarov A.A.

Bitiruv malakaviy ishi kafedradan dastlabki himoyadan o'tdi. Kafedraning
9-sonli bayonnomasi. «21» aprel 2014 yil.

Namangan – 2014

Kirish.....

1-bob. Ekologik turizmning nazariy va metodologik asoslari

- 1.1. Ekoturizmni ilmiy va amaliy yo'nalish sifatida o'rganish bo'yicha mavjud ilmiy ishlanmalar tahlili
- 1.2. Ekoturizm turlari va tarkibiy qismi
- 1.3. Ekoturizmning tasniflanishi.....
- 1.4. Ekoturistik kontsepsiyalar va printsiplar.....

2-bob. Namangan viloyatida ekoturistik rayonlar va marshrutlar

- 2.1. Ekologik turizmning tabiiy geografik jihatlari.....
- 2.2. Namangan viloyati tabiatining ekoturistik imkoniyatlari.....
- 2.3. Namangan viloyati hududining ekoturistik rayonlari.....
- 2.4. Ekoturistik rayonlarda marshrutlar.....

Xulosa.....

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Dunyo xo'jaligi tarkibida eng jadal sur'atlarda rivojlanib borayotgan iqtisodiyot sohalaridan biri turizmdir. Turizm industriyasi ko'pgina mamlakatlarning iqtisodiyotida muhim o'rin egallaydi. Uning hissasiga jahon yalpi milliy mahsulotining 10% i, jahon iste'mol sarfining 11% i to'g'ri keladi. Jahon turistik tashkiloti (JTT) ning ma'lumotiga ko'ra 2010 yilda turistik sayohatlarning soni 937 mln. atrofida bo'ldi. Zamonamizda turizm oqimi, XX asrdan farqli, nafaqat rivojlangan mamlakatlardan rivojlanganlariga, balki rivojlanayotgan mamlakatlarga tomon ham yuz o'girmoqda. Bu o'rinda turistik bozorning deyarli yarmini qamrab olgan Osiyo-Tinch okean mintaqalari, Yaqin va O'rta SHarq mamlakatlari yetakchilik qilmoqda. Rivojlanib borayotgan mamlakatlarning turizm industriyasi asosan tabiiy yoki ekologik turizm hisobiga amalga oshirilmoqda. JTT tomonidan ekologik turizmning rivojlanish tendentsiyalari aniqlangan bo'lib, uning bashoratiga ko'ra 2020 yilga qadar ekologik turizm beshta asosiy strategik yo'nalishlar qatoridan joy oladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1999 yil 15 aprelda imzolagan "2005 yilgacha bo'lgan davrda O'zbekistonda turizmni rivojlantirish davlat dasturi to'g'risida"gi Farmoni, hamda 2006 yil 17 aprelda «O'zbekiston Respublikasi 2006-2010 yillarda xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 325-sonli qarorining qabul qilinishi Vatanimizda turizm, jumladan, ekoturizm faoliyatini dasturiy asosda yo'lga qo'yishda mustahkam negiz bo'ldi.

Turizm industriyasi o'ziga katta sarmoya va resurslarni mujassamlashtirish bilan bir qatorda mustaqil davlat va jamiyat uchun zarur bo'lgan ma'naviy-ma'rifiy funksiyalarni bajaruvchi iqtisodiyot tarmog'idir. Ekoturizm orqali chet ellik mehmonlar O'zbekistonning boy va betakror tabiati haqidagi tassavurga ega bo'lsalar, O'zbekiston fuqarolari - o'z Vatani bilan yaqindan tanishadilar. Ularda ona yurtiga nisbatan milliy iftixor hamda g'urur tuyg'usini shakllantirish imkoniyatining tug'ilishini aytib o'tishning o'zi kifoyadir.

Ekoturizm ilmiy yo'nalish va amaliyot tarmog'idir. Undan tashqari, u turli hil ijtimoiy, iqtisodiy siyosiy, ekologik funksiyalarni bajaradi. Ekoturizmning ilmiy-nazariy asoslarini va uning tabiiy geografik jihatlarini ochib berish, Namangan viloyatining tabiatini ekoturistik imkoniyatlarini aniqlash, tahlil qilish, ulardan oqilona foydalanish yo'llarini ko'rsatish shu kunning dolzarb masalalaridan hisoblanadi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Turizmning ekologik yo'nalishi avvalambor amaliy ishlardan boshlangan. 1972 yildan boshlab Skandinaviya mamlakatlari fuqarolariga kitlarni tomosha qilish va o'rganishni tashkil qilish orqali yig'ilgan mablag'ni ularni muhofaza qilish uchun sarflashdan boshlangan. Keyinchalik ekoturistik marshrutlar Yevropaning boshqa mamlakatlari, Osiyo, SHimoliy Amerika davlatlariga yoyilgan. Lekin ekoturizmning yo'lga qo'yilishi XX asrning oxiri va XXI asrning boshlariga to'g'ri keldi, xolos. SHuning uchun hozircha ekoturizmning umume'tirof etilgan nazariyasi va amaliyoti yetarli darajada shakllanmagan. R.Davidov (1990), A.V.Drozdov (1999), N.Tuxliev va A.Taksanov (2001), V.V.Xrabovchenko (2003), T.V.Bochkareva (2003), L.I.Egorenkov (2003), A.Taksanov (2005), N.Tuxliev va T.Abdullaeva (2006) kabi tadqiqotchilarning ishlari esa ko'proq ekoturistik marketing, menejment, ta'lim, tarbiya va ekoturlarga bag'ishlangan bo'lib, ularda tabiatga qilinadigan turizm bilan ekoturizm o'rtasida aniq bir chegara o'rnatilmagan. Namangan viloyatida ham hali ekologik turizm va uning rivojlantirish jihatlarini to'liq o'rganilmagan.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari. Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi- Namangan viloyatida ekologik turizmning ilmiy asoslarini ishlab chiqish va rivojlantirish jihatlarini ochib berishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar hal etildi:

- √ ekoturizmning Namangan viloyatida hududidagi ekoturlarini tasniflash;
- √ ekoturizmning tabiiy geografik jihatlarini ochib berish;
- √ Namangan viloyati tabiatining (landshaftlarining) ekoturistik imkoniyatlarini tavsiflaydigan muhim omillarni belgilash va ularni xarakterlaydigan ko'rsatkichlarni aniqlash;

√ namangan viloyatini ekoturistik jihatdan rayonlashtirish;

Tadqiqot ob'ekti va predmeti. Mazkur BMIning tadqiqot ob'ekti – Namangan viloyatida tabiat yodgorliklari, muhofaza etiladigan tabiiy hududlari va tabiiy komplekslari, bunyod etilgan madaniylashtirilgan ob'ektlari tanlab olingan bo'lib, ularning ekoturistik imkoniyatlarini va tabiiy geografik jihatlarini o'rganish tadqiqotning predmetini belgilaydi.

Tadqiqot metodlari. Xalqaro hamjamiyat hamda O'zbekiston Respublikasining turizm va ekologiya sohasini rivojlantirish kontseptsiyasi, respublika Prezidenti I.A.Karimovning farmonlari va asarlari, Vazirlar Mahkamasining “O'zbekiston Respublikasida 2008-2012 yillar mobaynida atrof-muhitni muhofaza qilish dasturi”, mazkur yo'nalishda olib borilayotgan amaliy va ilmiy izlanishlar dissertatsiya ishining metodologik asosi bo'lib hisoblanadi.

Ushbu ilmiy tadqiqotni amalga oshirishda kompleks tabiiy geografik, kuzatuv, qiyosiy ekologik, kartografik, statistik, tizimli tahlil, tibbiy-geografik, psixologo-estetik, tabiat komponentlarini miqdoriy tahlil qilish va boshqa metodlardan foydalanildi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalari va olingan ilmiy xulosa, kartografik materiallar, rejalashtirilgan ekoturistik marshrutlar va ularni o'tkazish bo'yicha tavsiyalar Namangan viloyatida tabiatidan ekoturistik maqsadda foydalanishning tabiiy geografik asosini yaratib beradi. Undan joyning regional va mahalliy tabiiy imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda ekoturistik marshrutlarni o'tkazishda, ularni olib borish hamda tabiat-jamiyat o'rtasidagi uyg'unlikni buzmaganda boshqa turistik marshrutlar bilan birga tashkil etishda, tabiat va turizm bilan ekoturizmning huquqiy asoslarini ishlab chiqishda, turizm va rekreatsiyaga oid davlat va mahalliy dastur va loyihalarni ishlab chiqishda foydalanish mumkin.

BMIning tarkibiy tuzilishi va hajmi. Mazkur ilmiy ish kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovadan tashkil topgan. BMIning umumiy hajmi sahifadan iborat bo'lib, shundan matn qismi bet. Ishda ta karta, ta rasm, ta jadval va ta ilova keltirilgan.

Ishning kirish qismida mavzuning dolzarbligi, maqsad va vazifalari, tadqiqot ob`ekti va predmeti, ilmiy va amaliy ahamiyati bayon etilgan.

Birinchi bob «Ekologik turizmning nazariy va metodologik asoslari » deb nomlanib, unda ekoturizmni ilmiy va amaliy yo`nalish sifatida o`rganish bo`yicha mavjud ilmiy ishlanmalar tahlili, ekoturizm turlari va tarkibiy qismlari, ekoturizmning tasniflanishi, ekoturistik kontsepsiyalar va printsiplar keltirilgan.

Ikkinchi bob “Namangan viloyatida ekoturistik rayonlar va marshrutlar” deb nomlanadi. Unda ekologik turizmning tabiiy geografik jihatlari, Namangan viloyati tabiatining ekoturistik imkoniyatlari, Namangan viloyati hududining ekoturistik rayonlari, ekoturistik rayonlarda marshrutlarko`rsatib o`tilgan.

Xulosada ishning mazmun va mohiyatidan kelib chiqib, umumiy holati, ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar berilgan.